

**YURAK-QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARI***Ilmiy rahbar:P(h)D**Xudoyerova G.N.**Axtamova Madina,**Bahodirov Jahongir,**G'afurov Ikrom**(davolash fakulteti talabalari)***SAMARQAND ZARMED UNIVERSETETI**

**Mavzuning dolzarbliyi:** Yurak-qon tomir tizimi inson organizmidagi eng muhim tizimlardan biridir. U yurak va qon tomirlaridan iborat bo‘lib, butun tanaga kislород va oziqa moddalarni yetkazib beradi. Bugungi kunda yurak-qon tomir kasalliklari dunyoda o‘limga olib keladigan asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Bu kasalliklar har yili millionlab insonlarning hayotiga xavf tug‘diradi, shuning uchun ularni o‘rganish va oldini olish juda muhim.

**Kalit so’zlar:** gipertoniya, ateroskleroz, miokard infarkti, insult, miya,qon, elekrokardiogramma, emboliya, nevropatiya.

**Mavzuning maqsadi:** Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash choralarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot materiali va tekshirish usullari:** Ushbu tadqiqotda 40–60 yosh oralig‘idagi 50 nafar bemor ishtirok etdi. Tadqiqot Samarqand viloyati Nurobod tuman shifoxonasining ichki kasalliklar bo‘limida olib borildi. Tadqiqot ishtirokchilari quyidagi tanlov mezonlari asosida saralandi:

**Tekshirish usullari:** Tadqiqot davomida barcha bemorlar quyidagi tekshiruvlardan o‘tkazildi:Klinik-anamnestik ma’lumotlar yig‘ildi (shikoyatlar, kasallikning rivojlanish tarixi, hayot anamnezi);Umumi fizik tekshiruv (yurak urish tezligi, arterial bosim, tana harorati, nafas olish tezligi);Laborator tekshiruvlar: umumi qon tahlili, siydik tahlili, zarurat tug‘ilganda — biokimyoiy qon tahlillari (glyukoza, kreatinin, ALT, AST, lipid profil va boshqalar);Instrumental usullar: elekrokardiografiya (EKG), ultratovush tekshiruvi (UTT), ko‘krak qafasi rentgenografiyasi (kerakli hollarda). Yurak-qon tomir kasalliklarining turlari:Yurak ishemik kasalligi (YIK): yurak mushaklariga kislород yetishmovchiligi tufayli yuzaga keladi. Gipertoniya: qon bosimining doimiy ravishda yuqori bo‘lishi.Miokard infarkti: yurak mushaklarining bir qismining nobud bo‘lishi. Insult: miya qon aylanishining keskin buzilishi. Yurak yetishmovchiligi: yurakning to‘liq kuch bilan ishlay olmasligi. Ateroskleroz: qon tomirlar devorlarida xolesterin to‘planib, ularning torayishi.

**Yuzaga kelish sabablari**


Irsiy omillar	Surunkali kasalliklar	Belgilari
oila a'zolarida kasallik bo'lsa	qandli diabet	ko'krakda siqilish yoki og'riq
	semizlik	nafas yetishmovchiligi
	buyrak yetishmovchiligi	tez charchash, hushdan ketish
		yurak urishining o'zgarishi

**Diagnostika:** Elektrokardiogramma (EKG), Yurak ultratovush tekshiruvi (EHO), qon tahlillari (xolesterin, glyukoza). Tomirlar angiografiyasi: Insult (lotincha: insulto — zarba, hujum qilmoq) — bosh miyada qon aylanishning to'satdan buzilib, miya to'qimasining zararlanishi va funksiyasining izdan chiqishi; miyaga qon quyilishi. Gipertoniya kasalligi, miya tomirlari aterosklerozi, anevrizma, vaskulit va boshqa bir qancha kasalliklar insultga sabab bo'la oladi.

Surunkali arterial gipotensiya o'tkir shaklidan farqli o'laroq umuman boshqa sabablar tomonidan chaqirilgan bo'ladi. Qon bosimi past bo'lgan odamlarda odatda uning regulaytsiyasi buzilgan, haqiqiy sabablari esa turli tabiatga ega bo'ladi.

O'tkir arterial gipotensiya (kollaps, shok) qoida sifatida yurak faoliyatining buzilishi, ko'p miqdorda qon yo'qotish, suvsizlanishda yuzaga keladi va tezda miya va ichki a'zolarning gipoksiyasiga olib keladi. Shunday qilib, o'tkir gipotensiya — doimo ayrim kasalliklarning yoki tashqi ta'sirning asorati bo'lib, doimo davolanishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan aniq sabablari mavjuddir.

Bemorning qon bosimi tushib ketsa, bosh aylanishi va hushidan ketish mumkinligini sezsa, u gorizontal holatni egallashi yoki o'tirib, boshini tizzalariga qo'yishi kerak. Bo'yinni massaj qilish miyaga qon kelishini yaxshilashi mumkin. Qon bosimini ko'tarish uchun alkogolli ichimliklar ichish tavsiya etilmaydi. Birinchi yordam ko'rsatish bemroni yotqizish, unga toza havo kelishini ta'minlash, yuziga sekin urish mumkin.



**Natija:** Shundan so'ng darhol tez tibbiy yordam chaqirish kerak.

Yurakning ishemik kasalligi — yurak-tomir sistemasining keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi va koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligiga, asosan, koronar (toj) tomir arteriyalari aterosklerozi natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi va shu tufayli yurakning qonga yolchimasligi sabab bo'ladi. Yurakning ishemik kasalligiga stenogkardiya (dastlabki, muqim, nomuqim), miokard infarkti, infarktdan keyingi kardioskleroz, aritmik tur va yurak yetishmovchiligi kiradi. Yurakning ishemik kasalligiga. muntazam rivojlanib boruvchi og'ir yurak xastaligi hisoblanadi. Yosh ulg'aygan sari kasallik uchrashi ko'payadi.

Ateroskleroz (yunoncha athera – bo'tqa va skleroz) – yog'simon modda (lipoid)lar almashinushi buzilib, ularning arteriya ichki qavatida to'planishi va biriktiruvchi to'qimaning o'sib ketishi natijasida kelib chiqadigan surunkali kasallik. Ateroskleroz qon aylanishining umumiy va mahalliy buzilishi bilan birga kechadi. Arteriya devori to'qimasi xujayralaridagi o'zgarishlar, ularda kechadigan biokimiyoviy jarayonlardagi buzilishlar ateroskleroz paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Arteriyalar devorining ayrim sohalarida fibroz to'qima rivojlanishi, shu sohalarda xolesterin va boshqa moddalar yig'ilishi ateroskleroz paydo bo'lishiga olib keladi. Bu arterial qon bosimining ko'tarilishi yoki arterial gipertenziyaga (qarang qon bosimi) bevosita bog'liq. Ateroskleroz avj olishiga sabab bo'ladigan kasallikkardan biri qandli diabetdir. Bunday bemorlar vrachning doimiy

kuzatuvi ostida bo‘lishlari lozim. Aterosklerozga moyillik keyingi avlod vakillarining ma’lum bir qismi orasida irsiy yo‘l bilan o‘tadi; ota-onasi ateroskleroz bilan og‘igan shaxslar irsiy moyillikka yo‘l qo‘ymaslik uchun uning oldini olish choralarini ko‘rishlari zarur. Aterosklerozda barcha arteriyalarning umumiyligi zararlanishi kam uchraydi. Asosan, bosh miya, yurak, buyrak va oyoq tomirlari zararlanadi. Bosh miya tomirlarida aterosklerotik o‘zgarishlar avjiga chiqqanda qon aylanishining o‘tkir buzilishi – insult ro‘y berishi mumkin.

**Xulosa:** Yurak-qon tomir tizimi inson organizmidagi eng muhim hayotiy tizimlardan biridir. Ushbu tizim yurak, qon va qon tomirlaridan tashkil topgan bo‘lib, butun organizm bo‘ylab kislorod, oziqa moddalari, gormonlar va boshqa zaruriy moddalarning tashilishini ta’minlaydi. Yurak bu tizimning markaziy organi bo‘lib, doimiy ravishda qisqarish orqali qonni tomirlar orqali harakatlantiradi.

Arteriyalar qonni yurakdan tana to‘qimalariga olib boradi, vena tomirlari esa kislorodga boy bo‘lmagan qonni yurakka qaytaradi. Kapillyarlar esa almashinuv jarayonini amalga oshiruvchi eng mayda tomirlardir.

Yurak-qon tomir tizimi sog‘lom ishlashi uchun to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, stressdan saqlanish va zararli odatlardan voz kechish muhim ahamiyatga ega. Uning buzilishi yurak ishemik kasalligi, gipertoniya, yurak yetishmovchiligi kabi og‘ir kasalliklarga olib kelishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Т. Р. Каримов, Ш. Х. Ходиев. “Патологическая физиология” – Тошкент: Tibbiyot, 2019.
2. Ж.Ж.Холматова. “Патофизиология” (darslik) – Toshkent, 2020.
3. Ванеян А. Г. “Патофизиология сердечно-сосудистой системы” – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2017.
4. Гайнутдинов Х.Х. “Внутренние болезни” – Тошкент, 2018.
5. Harrison's Principles of Internal Medicine, 20th Edition – McGraw-Hill Education, 2018.
6. Kumar, Abbas, Aster. “Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease”, 10th Edition – Elsevier, 2020.
7. М. Г. Spiridonov. “Патологическая анатомия и физиология” – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2016.
8. Muxamedov S.S., Karimov I.K. “Ichki kasalliklar propedevtikasi” – Toshkent, 2021.
9. Braunwald E. “Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine” – Elsevier, 2021.
10. WHO (World Health Organization). Global Status Report on Noncommunicable Diseases – Geneva, 2021.